

TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHDA HAYKALTAROSHLIKNI AHAMIYATI

Madaminjonova Muxlisa Mahmudjon qizi
muxlisamadaminjonova12@gmail.com

Andijon davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy gumanitar va san’at fakulteti” “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo’nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqlada tasviriy san'at fanini o'qitishda haykaltaroshlikning ahamiyati va uning o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'siri yoritilgan. Haykaltaroshlik orqali o'quvchilarga san'atning uch o'lchamli imkoniyatlarini tushuntirish, ko'nikmalarni shakllantirish va estetik didni tarbiyalashning yo'llari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: haykaltaroshlik, tasviriy san'at, ijodiy tafakkur, estetik did, fazoviy ko'nikmalar, o'lcham , material.

Annotation: this article covers the importance of sculpture in teaching Fine Arts and its impact on the development of students ' creative abilities. Through sculpture, students are told ways to explain the three-dimensional possibilities of art, form skills and educate aesthetic taste.

Keywords: sculpture, fine arts, creative thinking, aesthetic taste, spatial skills , size, material.

Аннотация: В этой статье рассматривается важность скульптуры в преподавании изобразительного искусства и ее влияние на развитие творческих способностей учащихся. С помощью скульптуры учащимся объясняются трехмерные возможности искусства, описываются способы развития навыков и воспитания эстетического вкуса.

Ключевые слова: скульптура, изобразительное искусство, творческое мышление, эстетический вкус, пространственные навыки, размер, материал

Tasviriy san'at fanida ranglar, shakllar va chiziqlar orqali ijod qilishga asoslangan ijodiy faoliyatlar keng qo'llaniladi. Ammo, haykaltaroshlik san'ati bu sohaga yangi o'lcham, ya'ni uch o'lchamli ijodiy jarayonni kiritadi. Bu san'at turi o'quvchilarga nafaqat ob'ektlarning tashqi shaklini ko'rish va yaratishga yordam beradi, balki o'sha ob'ektlarning ichki strukturasi va fazoviy tafakkurni ham rivojlantiradi. Ushbu maqola haykaltaroshlikning tasviriy san'at fanidagi o'rni va uning ta'lim jarayoniga ta'siri haqida so'z yuritadi.

Haykaltaroshlik ikkiga bo'linadi: dumaloq haykaltaroshlik va relyef. Dumaloq haykal uch o'lchamli bo'lib, unga har tomondan qarash mumkin. Relyef esa faqat bir tomondan ko'rinib, biror sirtga o'yib tushiriladi yoki yopishtirib ishlanadi. Bu san'atning asosiy materiallari tosh, metall, yog'och, gips, loy va zamonaviy texnologiyalar bilan olingan plastmassa va shunga o'xshash materiallar hisoblanadi. Haykaltaroshlikning tarixi qadimdan boshlanib, u Misr, Yunoniston va Rim kabi madaniyatlarning muhim qismiga aylangan. U paytlarda haykallar asosan diniy yoki davlat arboblarini, mifologik qahramonlarni tasvirlagan.

Haykaltaroshlikning ta'limdagi o'rni haqida haykaltaroshlik san'ati o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. U uch o'lchamli fazoviy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa nafaqat san'atga, balki boshqa fanlarga, jumladan matematika va geometriya fanlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Haykaltaroshlik orqali o'quvchilar materiallarni to'g'ri tanlash, ulardan foydalanish va murakkab ob'ektlarni yaratish ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Bu jarayonlar o'quvchilarning sabr-toqatini, aniq

ishlash ko'nikmasini va ijodiy yondashuvlarini shakllantiradi. Chunki haykaltaroshlikda ko'pincha aniq bir narsaga asoslanib yasaladi.

Tasviriy san'at fanida haykaltaroshlik orqali o'quvchilarga beriladigan topshiriqlar ijodiy tafakkurni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Haykallarni yaratish jarayoni amaliy va ijodiy faoliyatni birlashtiradi, bu esa o'quvchilarining qo'l mehnati bilan intellektual faoliyatini uyg'unlashtiradi. Bu jarayon orqali bolalar o'z fantaziyalarini real shakllarga aylantirishni o'rganadilar. Bu esa bolada yanada yashirin iqtidorlarini oshiradi. Masalan haykaltaroshlik bo'yicha mashxur haykaltaroshlardan biri Constantin Brâncuși – Rumiňiya haykaltaroshi, modernizmning buyuk vakillaridan biri. Uning "Cheksiz ustun" va "Uyqudag'i qush" kabi asarlari minimalistik uslubda yaratilib, haykaltaroshlikda yangi yondashuvlarni ko'rsatgan. O'zbekistondagi mashxur haykaltaroshlaridan esa Ihom Jabborov.

Ihom Jabborov bilim yurti va san'at institutida ta'lim olgan yillaridayoq o'zining iqtidori bilan ajralib turar edi. Shuning uchun ham u yaratgan asarlar rang-barangligi, kompozitsiyalarga boyligi bilan ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, uning "Hayol" nomli asari diqqatga sazovordir. Shunday qilib, Ilhom Jabborov o'ta rang-barang haykallar yarata boshladi. Haykaltarosh bir qator allomalar obrazini yaratgan. Bu haykallar essa O'zbekistonga mashxur. Shuni aytish joizki, O'zbekiston o'zining qisqa vaqtidagi mustaqillik yillari davomida iqdисодиij-ijtimoiy sohadagi yutuqlari bilan bir qatorda, mafkuraviy-ma'naviy, madaniy ishlarga e'tiborini kuchaytirib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida o'z nufuzi va obro'sini yuqori ko'tarmoqda. Ozbekiston tasviriy dastgoh san'ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqilarga erishdi. Ozbekiston san'ati zafarli yolni bosib otdi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki tasviriy san'at fanini o'qitishda haykaltaroshlik san'ati o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda va estetik didni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. U uch o'lchamli ko'nikmalar, ijodiy yondashuv va materiallarni tanlash, ulardan foydalanish bo'yicha amaliy bilimlarni shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun, tasviriy san'at darslarida haykaltaroshlikka kengroq e'tibor qaratish o'quvchilarining umumiy ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Nuriddinov, M. "O'zbekistonda haykaltaroshlik san'ati". — Toshkent: Fan, 2007.
2. Rustamov, Sh. "O'zbek haykaltaroshlari". — Toshkent: O'zbekiston, 1996.
3. Xidoyatov, A. "O'zbek milliy haykaltaroshlik maktabi tarixi". — Toshkent: Kamolot, 2005.